

7-SINF ONA TILI DARSLIGIDA TINGLAB TUSHUNISH KO'NIKMASINI RIVOJLANTIRISHGA OID TOPSHIRIQLAR TAHLILI

Saydirasulova Munisa Saidg'ani qizi

Samarqand davlat universitetining

Kattaqo'rg'on filiali Pedagogika va tillarni o'qitish fakulteti Filologiya va tillarni o'qitish:

O'zbek tili yo'nalishi 3-bosqich talabasi

Turg'unboyeva Zilola Farxod qizi

Samarqand davlat universitetining

Kattaqo'rg'on filiali Pedagogika va tillarni o'qitish:

O'zbek tili yo'nalishi 3-bosqich talabasi

Email:munisasaydirasulova8@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada 7-sinf ona tili darsligida tinglab tushunish ko'nikmasini rivojlantirishga qaratilgan topshiriqlar tahlili berilgan. Mazkur darslikda o'quvchilarning tinglangan axborotni tushunish, tahlil qilish hamda tinglangan axborotga munosabat bildirish orqali tinglab tushunish ko'nikmasini rivojlantirishga va bu bilan og'zaki va yozma nutqini o'stirishga qaratilgan topshiriqlar o'rin olgan.

Kalit so'zlar: tinglab tushunish, bilish, idrok qilish, mushohada yuritish, munosabat bildirish

So'nggi yillarda umumiy o'rta ta'limda ta'lim shakli va mazmuni bilan bog'liq bir qancha o'zgarishlar ro'y berdi. Ta'lim mazmuni dastur darsliklar hamda o'quv-metodik qo'llanmalarda o'z ifodasini topdi. 2020-yilda loyiha sifatida taqdim qilingan Milliy o'quv dasturi doirasida so'nggi uch yil ichida nashrdan chiqib o'quvchilar qo'lga yetib borgan darsliklarda amaliy ko'nikmalarini, nutqiy kompetensiyalarini, ijodiy kreativ fikrlashni rivojlantirishga e'tibor qaratilgan.

Ona tili darslari o'quvchida to'rt nutqiy ko'nikmasini rivojlantirishga e'tibor qaratadi. Bular: o'qib tushunish, tinglab tushunish, og'zaki nutq va yozma nutq. Mavzulardagi nutq va matnlar ichida grammatik bilimlar bolaga o'rgatib boriladi. Bunda ona tili butun borliqni, tabiatni, jamiyatni, fanlarni, o'zlikni anglash va o'rganish vositasiga aylantirilgan. O'quvchi tilning strukturasi emas, balki tilning o'zini o'zlashtiradi undan foydalanishni o'rganadi.

Tinglab tushunish ko'nikmasini egallash, Andersen va Linchning ta'kidlashicha, o'z-o'zida ko'plab ko'nikmalarni o'z ichiga oladi va ular yuzma-yuz suhbatda tinglash jarayonini tashkil etuvchi to'rt bosqichda bo'ladi.

1. Og'zaki signallarni atrofdagi tovushlar orasidan ajratib anglay olishi kerak.

2. Uzlüksiz nutq oqimini birliklarga bo‘lishi va undagi so‘zlarning ma’nosini tushuna olishi kerak.
3. Gapning sintaksisini tushunish va so‘zlovchining maqsadini tushunish kerak.
4. Tilga oid bilimlardan foydalanib, javob qaytara olish kerak.

Ko‘rinadiki, biz shunchaki qulog‘imiz bilan eshitayotgan axborotimizni to‘liq tushunishimiz uchun yuqoridagi ko‘nikmalarni egallagan bo‘lishimiz kerak. Bu esa uzluksiz ta’lim jarayonida bosqichma-bosqich rivojlantirilib borilishi zarur.

7-sinf darsligida 20 ta mavzu doirasida 13 ta tinglab tushunish ko‘nikmasini rivojlantirishga qaratilgan topshiriqlar o‘rin olgan. Matnlar va topshiriqlar bolaning yoshiga mos va qiziqarli. Masalan, „Ijtimoiy tarmoqlar“ mavzusining 1-dars mashg‘ulotida „Sun‘iy intellekt“ audio matni berilgan. Unda quyidagicha savollar berilgan.

„Sun‘iy intellekt“ audiomatnini tinglang va savollarga javob bering

1. Aqlli komputer sizni qanday qilib tanib oladi?
2. Sun‘iy intellekt odamlardek haqiqiy ongga egami? Javobingizni izohlang?
3. Aytinch-hi hozirgi kunda sun‘iy intellekt qaysi qurilmalarda bor?
4. Matnda aytilishicha sun‘iy intellekt qaysi kasblarning yo‘qolib ketishiga sabab bo‘lishi mumkin? Bu fikrga qo‘shilasizmi? Nima uchun?

O‘quvchilarga audiomatnni eshittirishidan oldin o‘quvchilarga quyidagi savol bilan murojaat qilinadi. Sun‘iy intellekt nimalar qila oladi? Qachondan sun‘iy intellekt hayotimizga kirib keldi deb o‘ylaysizlar? Bu savollar matnning tinglash jarayoniga tayyorlashda muhim hisoblanib, bolaning mavzuni tinglashga tayyorlaydi. O‘quvchilarni mavzuga yaqinlashtiradi va diqqatini tortadi. O‘quvchilarga yana bir necha savollar bilan murojaat qilsa yana ham maqsadga muvofiq bo‘ladi.

O‘quvchilarni audiomatn tinglashlaridan oldin savollar bilan tanishtirish kerak. Chunki shunda ular berilayotgan axborotni qaysi tomoniga ahamiyat berishi kerakligini o‘zlari uchun aniqlab oladilar. Tinglanayotgan axborotni o‘quvchi uchun notanish, birinchi marta duch kelayotgan so‘zlar bo‘lsa o‘qituvchi bu so‘zlar bilan tanishtirishi, ma’nosini izohlab berishi zarur. Chunki bola jumlagacha duch kelishi bilan diqqatni shu jumlagacha qaratib, undan keyingi qismga e’tibor bermaydi. Shu so‘zning ma’nosini axtarish bilan band bo‘lib, matn to‘liq tushunilmaydi. Shuning uchun audiomatn bir necha bor qo‘yib berilishi kerak.

Matn eshittirilgandan so‘ng yuqoridagi 5 savol-topshiriq beriladi. Savollar matnning yanayam tushunishga yordam beradi. Savollarga e’tibor beradigan bo‘lsak, barchasi og‘zaki javob berishga qaratilgan va bir xil usulda, ya’ni bolani nimani eslab tushunganligini tekshirishga qaratilgan faqat bitta ko‘nikmasini aniqlagan. Tinglab tushunish topshiriqlari o‘qib tushunish ko‘nikmasini tekshiradigan topshiriqlarga nisbatan osonroq bo‘ladi. Chunki tinglab tushunishda matnga qaytib

bo'lmaydi. Matn tanlanayotganda ham aynan shu jihatni e'tibordan qochirmaslik zarur.

“Ochiq osmon ostidagi muzey” mavzusida bu ko'nikmaga oid topshiriq 2-dars mashg'ulotida berilgan. Unda “Dron nega “dron” deyilgan” audiomatn berilgan va unga oid bir necha xil savollar berilgan. Matn sarlavhasining o'ziyoq diqqatni o'ziga tortadi va uni ham o'quvchilar bilan muhokama qilish mumkin. Bu mavzuda ham yangi so'zlar lug'ati bilan ishlash tavsiya qilinadi.

Bu mashg'ulotda ham matnni eshittirishdan oldin o'quvchilarni savollar bilan tanishib chiqishlarini so'rash kerak

1. Dronlar dastlab qanday nomlangan?
2. Dron degan nom uning qanday xususiyatiga asoslanib berilgan?
3. Arilar va dronlar o'rtasida qanday o'xshashlik bor?
4. Nom tanlashda nimalarga e'tibor qaratilar ekan?

O'quvchilar audiomatnda eshitgan ma'lumotlarning ketma-ketligini matnni mazmuniy bo'laklarga ajratgan holda gaplarni tartiblab yozib chiqishlari so'raladi. Bu sohada o'tkazilgan tajribalardan aynan shunday xulosa kelib chiqqan.

1. Boshlang'ich daraja. Bunday ayrim leksemalar yaxshi tushunilib, yodda qoladi.
2. O'rta daraja. Bunda matn bloklarga bo'lingan holda qabul qiladi.
3. Yuqori daraja. Matnga tegishli har bir so'z alohida holda va kontekstual ma'nolar bilan tushuniladi.

O'qituvchi matnga oid topshiriqlarning darajasidan kelib chiqib audiomatni 2-3 martagacha eshittirilishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, 7-sinf darsligida topshiriqlar bolada umri davomida asqatadigan 4 ta kompetensiyani rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, tinglab tushunish ko'nikmasi ana shulardan biridir. O'quvchilar o'z mahorati va tavsiyalarga amal qilgan holda matnni to'liq tushunishga va undan shu ko'nikmani rivojlanishiga erisha oladilar.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:

1. Iroda Azimova va b. Ona tili. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 7-sinf uchun darslik-Toshkent, 2022.
2. Iroda Azimova va b. Ona tili. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 6-sinf uchun darslik-Toshkent, 2022
3. G'ulomov A va b. Ona tili o'qitish metodikasi-Toshkent. Fan va texnologiya. 2012
4. Andersen ana Lynch. Listening. Oxford University Press, 2003.